

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

ASRANOV ABDURASUL XOSHIMJONOVICH

**OLIY TA’LIM TIZIMIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA NAZORATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Asranov Abdurasul Xoshimjonovich

Oliy ta’lim tizimida buxgalteriya hisobi va nazoratini takomillashtirish.....	3
---	---

Асронов Абдурасул Хошимжонович

Совершенствование учета и контроля в системы высшего образования	27
--	----

Asranov Abdurasul Xoshimjonovich

Improving accounting and control in the higher education system	63
---	----

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works	59
-------------------------------	----

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

ASRANOV ABDURASUL XOSHIMJONOVICH

**OLIY TA’LIM TIZIMIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA NAZORATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatasiya komissiyasida
B2022.2.PhD/Iqt2232 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch til (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi
(www.tsue.uz) va "Ziyonet" ta'lif axborot tarmog'ida (www.zyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibragimov Abdugapur Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdusalomova Nodira Baxodirovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Masharipov Ozod Alimovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislar instituti" milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi
DSc03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «3 10» kuni 12 dagi majlisida
bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri Islom Karimov ko'chasi 49-uy, Tel.: (0371) 239-28-72,
Faks: (0371)239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti axborot-resurs markazida tanishish
mumkin. (17.08 raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri Islom Karimov ko'chasi
49-uy, Tel.: (71)239-28-72, Faks.: (71)239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «18» 08 kuni tarqatildi.

(2024-yil «18» 08 dagi 62 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doctori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati. Jahon miqyosida global raqobat kurashining kuchayib borishi yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlashda oliy ta’lim tizimi faoliyatini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ta’lim xizmatlari sifatini takomillashtirish, talabalarning bilim olish imkoniyatlarini oshirish nafaqat mazkur sohaga xarajatlarni oshirish, balki mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini qulayligi va uni rivojlanishini talab etmoqda. “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo davlatlarda oliy ta’lim tizimi xarajatlari YAIMning o‘rtacha 1,5 foizini tashkil etadi. Bunda xususiy sektorning ulushi YAIMning 1 foizini tashkil etsa, davlatning ulushi YAIMning 0,5 foizini tashkil etadi. Jumladan, 2015-yilda oliy ta’lim tizimini moliyalashtirishda davlatning ulushi Avstraliya, Norvegiya, Finlyandiya mamlakatlarida yuqori bo‘lib, ushbu sohaga xarajatlar YAIMning 1,5 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etgan. Oliy ta’limni moliyalashtirishda xususiy sektorning ulushi katta bo‘lgan mamlakatlar qatoriga AQSH, Buyuk Britaniya, Chili kabi mamlakatlarni kiritish mumkin. Ushbu mamlakatlarda oliy ta’lim xarajatlarida xususiy sektorning ulushi YAIMning o‘rtacha 1,2-1,7 foizini tashkil etgan”¹. Shu nuqtai nazardan dunyo ta’lim muassasalari tomonidan davlat budjeti va o‘zi ishlab topgan mablag‘lari, xususiy ta’lim tizimi mablag‘laridan samarali va oqilona foydalanishning hisobi, hisoboti va auditini xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etishga alohida e’tibor berilmoqda.

Dunyo miqyosida oliy ta’lim tizimi faoliyatida buxgalteriya hisobi va nazoratini takomillashtirish masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Budget tizimi va uni boshqarish, budget ijrosi hisobini tashkil etishning usullari va yo‘nalishlari, ta’lim tizimining xususiyati, o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta’minalashi, ushbu mablag‘lardan samarali foydalanishi, axborotlarning ochiqligini ta’minalash va hisobdorlikni oshirish, budget tizimida moliyaviy hisobotlarning axborot ta’minotini takomillashtirish, ta’lim tizimi rivojlanishini xalqaro standartlarga moslashtirish, budget va o‘z mablag‘lari buxgalteriya hisobini yuritish, hisob va nazoratni xalqaro standartlar talablari darajasida tashkil etish, moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini oshirish, ularning moliyaviy nazoratini ta’minalash bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, shu jumladan buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va nazorat tizimini xalqaro audit standartlari, nazorat bo‘yicha xalqaro tamoyillarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, 2022-yil 1-yanvardan “Davlat audit” dasturiy kompleksi ishga tushirilib, unga ko‘ra ta’lim tizimida budget tashkilotlari va xo‘jalik hisobidan topilgan mablag‘larni barcha davlat moliyaviy nazorati tadbirlari, shu jumladan ichki audit xizmatlarining audit tadbirlari “Davlat audit” dasturida ro‘yhatga olinib, ushbu sohada amaliy ishlar qilinmoqda. Shuningdek, keyingi yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi bilan bog‘liq jarayonlar hisobini tashkil qilish va uning nazoratini

¹ Education at a Glance 2018: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris. <http://dx.doi.org/10.1787/eag-2018-en>

amalga oshirishga alohida ehtiyoj sezilmoqda. Oliy ta’lim tizimi faoliyatni tahlili va audit masalalariga e’tibor qaratilishiga doir ko‘plab islohotlarning olib borilayotganligi ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini ta’minlaydi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti va raqamlashtirish sharoitida budget tashkilotlarida budget hisobi va nazoratini takomillashtirishning dolzarb masalalari, tamoyillari, usullari va xususiyatlari to‘g‘risida mazkur soha olimlari tomonidan turli xil qarashlar mavjudligi sababli tegishli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishning zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 21-avgustdagи PQ-3231-son “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2018-yil 22-avgustdagи PQ-3917-son “Budget ma’lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekistondagi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’lim tizimi faoliyatni budget hisobi va hisoboti, ayniqsa oliy ta’lim tizimining hisobi va nazoratining nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish va uni takomillashtirish bo‘yicha bir qator xorijlik iqtisodchi-olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular jumlasiga Anwar Shah, Andreea Cirstea, Antonio Trigo, Fernando Belfo, M.A. Jorge de Jesus, JSB. Eirado, N.P.Kondrakov, O.Krasnoperova, T.S.Maslova, O.V.Mitina, V.Yu.Pokusayev, T.A.Polezuk, M.A.Ryabovalarni kiritish mumkin².

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan K.B.Axmedjanov, M.X.Saidov, A.A.Ostanakulov, A.K.Ibragimov, M.Ostanakulov, N.Q.Rizayev, S.N.Tashnazarov, A.J.Tuychiyev, B.K.Hamdamov, B.A.Xasanov, Z.U.Xamidovalarning asarlarida

² Anwar Shah. Public Sector Governance and Accountability Series: Budgeting and budgetary institutions. 2007. Andreea Cirstea. The Need for Public Sector Consolidated Financial Statements. Volume 15, 2014, Pages 1289-1296.; Fernando Belfo, Antonio Trigo Accounting Information Systems: Tradition and Future Directions. Procedia Technology. Volume 9, 2013, Pages 536-546.; MA Jorge de Jesus, JSB Eirado. Relevance of accounting information to public sector accountability: A study of Brazilian federal public universities. TÉKHNE - Review of Applied Management Studies. 2012.; Кондраков Н.П. и др. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. -М.: Проспект, 2006.; Красноперова О. Бюджетный учет – М.: "ГроссМедиа Ферлаг", 2008.; Полещук Т.А., Маслова Т.С. Контроль и ревизия в бюджетных учреждениях. Учебное пособие. –М.: "ИНФРА-М", 2017. 227 с.; Рябова М.А. и друг. Бюджетный учет и отчетность: учебное пособие / - Ульяновск: УлГТУ. 2010.; Wan Zurianti Wan Zakaria, Norazlina Ilias, Norlidawahi Wahab. A Survey on the Impact of Accounting Information System on Tasks Efficiency: Evidence from Malaysian Public Sector Agencies. International Review of Management and Marketing. ISSN: 2146-4405. 2017, 7(1), 183-190.; The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank.

budget hisobi, hisoboti va nazoratining nazariy masalalari hamda ularni rivojlantirish yo‘nalishlari o‘rganilgan³.

Shuningdek, Sh.V.G‘aniyev, S.U.Mehmonov, K.Sh.Ibragimov, A.S.Bakaybayeva, A.A.Ostanakulov, B.T.Yuldashev, Q.A.Artiqovning dissertatsiya va monografiyalarida budget tashkilotlarining buxgalteriya hisobi va hisoboti, nazorati ilmiy jihatdan asoslanishiga zamin yaratildi⁴.

Ta’kidlash zarurki, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan budget tashkilotlarining hisobi va hisoboti, nazoratining metodologik muammolarini o‘rganishga keng e’tibor qaratilgan, lekin vaqt o‘tishi amaldagi me’yoriy hujjatlarning budget tizimini isloh qilish va takomillashtirish sharoitiga muvofiq o‘zgarib borishi ushbu sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish lozimligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Budget tashkilotlari va xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarida boshqaruv hisobi, tahlili va moliyalashtirish tizimini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha (2019-2023 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Oliy ta’lim tizimida buxgalteriya hisobi, uning yuritilishi va nazoratini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslovchi takliflar va amaliyot qo‘llash bo‘yicha ahamiyatga molik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta’lim tizimi faoliyatini hisob tizimini shakllanishi, o‘zini-o‘zi moliyalashtirishning iqtisodiy ahamiyati va ularni hisobga olishning zarurligini nazariy hamda uslubiy jihatdan asoslash;

oliy ta’lim tizimida budget va o‘zi tomonidan ishlab topilgan mablag‘lar hisobi va hisobotining nazariy hamda uslubiy asoslarini tadqiq etish;

³ Ахмеджанов К.Б. Иқтисодиётни модернизатсия килиш шароитида ички аудит методологиясини такомиллаштириш. иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия автореферати. –Т.: 2016. – 76 б.; Ибрагимов А.К., Суирбаев Б.Б. (2009) “Бюджет нazorати ва аудити” Ўкув қўлланма / Т.: «инфоСОМ.УЗ». 192 б.; Остонакулов М. Бюджет ташкilotlariда янги бухгалтерия хисоби. Қўлланма. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2011. 480 б. 237-бет; Ризаев Н.Қ. Интеллектуал мулк объектлари хисоби ва таҳлилини ташкил этиш методологияси. иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия автореферати. –Т.: 2017. – 76 б.; Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисбототинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш // Монография.-Самарқанд.: 2018. - 271 б; Туйчиев А.Ж. ва бошқ. Бюджет ташкilotlariда бюджет хисоби. Дарслик. «Иқтисод-молия» 2019. 429 б.; Ўразов К.Б. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида бухгалтерия хисобининг концептуал масалалари. – Тошкент: Фан, 2005. – 236 б.; Ҳамдамов Б.К. ва бошқ. Бюджет нazorати. Ўкув қўлланма. – Т.: “Iqtisod moliya”, 2016. 324 б.; Ҳасанов Б.А. Бошқарув хисоби ва ички аудит методологиясини такомиллаштириш масалалари: иқтисодиёт фанлари доктори диссертатсия автореферати. –Т.: Ўз.Р.БМА. 2004. – 42 б.; Ҳамидова З.У. Бюджет ташкilotlariда ички аудит ва молиявий назорат хизматлари фаолиятини самарали ташкил қилиш масалалари. Монография. – Т.: “VNESHINVESTPROM” 2021. 183 б.

⁴ Фаниев Ш.В. Бюджет ташкilotlariда бухгалтерия хисоби ва молиявий назоратни такомиллаштириш (таълим tizimi misolida). иқтисодиёт фанлари номзоди диссертатсия автореферати. - Т.: Ўз.Р.БМА., 2008. 28 б.; Мехмонов С.У. Бюджет ташкilotlariда бухгалтерия хисоби ва ички аудит методологиясини такомilaштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатsiasи. - Т.: “Iqtisod moliya”, 2016.; Ибрагимов К.Ш. Бюджет ташкilotlariда бухгалтерия хисоби ва молиявий хисбототни такомиллаштириш (Олий таълим muassasalari misolida). иқтисодиёт фанлари фалсафа доктори (PhD) диссертатсия автореферати. - Т.: 2018. – 54 б.; Бакайбаева А.С. Ўзбекистон Республикасида бюджет хисоби ва молиявий назоратни такомиллаштириш йўллари. иқтисодиёт фанлари фалсафа доктори (PhD) диссертатсия автореферати. - Т.: 2020. – 52 б.; Отанокулов А. Бюджет ташкilotlarining бюджетдан ташқари маблағлари хисоби ва хисботи методологиясини такомilaштириш иқтисодиёт фанлари доктори диссертатсия автореферати. - Т.: 2022. – 52 б.; Юлдашев Б.Т. Бюджет ташкilotlariда бюджетдан ташқари маблағлар хисоби ва ички аудитини такомilaштириш иқтисодиёт фанлар фалсафа доктори (PhD) олиш учун ёзилган диссертатсия автореферати - Т.: 2023. - 326.; К.А.Артиков Олий таълим muassasalarining молиявий манбалари бўйича харажатлар хисоби ва назорatinи такomilaштириш иқтисодиёт фанлар фалсафа доктори (PhD) олиш учун ёзилган диссертатсия автореферати.

oliy ta'lim tizimida budget hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarini tuzishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;

oliy ta'lim tizimida moliyaviy nazorat va hisobot auditini takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti bo'lib Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tadqiqotning ob'yekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib oliy ta'lim muassasalarining budget va budjetdan tashqari mablag'lari hisobini yuritish va hisobotini tuzish, uning nazoratining nazariy, amaliy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, monografik kuzatuv, statistik tahlil hamda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblarda 174/1 - "Akademik stipendiya oluvchilar hisob-kitoblar", 174/2 - "Ijtimoiy stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar", 174/3 - "Maxsus stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar", 174/4 - "Nomdor stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar" subschyotlarini qo'llash asosida stipendiya oluvchilar hisobi yuritilishini takomillashtirish taklifi asoslangan;

talabalar bilan hisob-kitoblar hisobini olishda 178 - "Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar" ishchi schyot ochish hamda 178/1 - "kredit-modul bo'yicha hisob-kitoblar", 178/2 - "Talabalar turar joyi to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar" subschyotlarini qo'llash asosida talabalar bilan to'lov-kontraktdan tashqari boshqa mablag'lar hisobini to'liq va aniq yuritish taklifi asoslangan;

budgetdan tashqari mablag'larni hisobga olishda 263 - "innovatsion jamg'armasi mablag'lari bo'yicha daromadlar" schyotini alohida qo'llash orqali innovasion faoliyatdan olinadigan daromadlar hisobini takomillashtirish taklifi asoslangan;

talabalar bilan kredit-modul hisobini budgetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi schyotida yuritish orqali kredit-modul tizimida talabaning fanlardan qarzdorligi bo'yicha hisob - siyosatini takomillashtirish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davlat oliy ta'lim muassasalarining mablag'larini smetalarda nazarda tutilgan maqsadlarda sarflanishini ta'minlash tartibi asoslangan;

davlat oliy ta'lim tizimidagi va mustaqil OTMlari bo'yicha daromadlar va xarajatlar hisobiga oid schyotlar korrespondensiyasi ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalarida daromad va xarajatlarni xalqaro standartlarga mos ravishda yuritish va xarajatlarning asoslanganligini nazorat qilish usullaridan foydalanish tartibi ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalarida budgetdan tashqari mablag'larining sarflanishini nazorat qilish tartibi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning umumtan olingan va maqsadga muvofiqligi, normativ-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlarining rasmiyligi, OTMlariiga oid ma'lumotlarning moliyaviy hisobot manbalaridan

olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning normativ-huquqiy hujjatlar hamda budget hisobini yuritish va hisobotini tuzish hamda nazoratini takomillashtirish uchun joriy etilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati davlat oliy ta’lim tizimida buxgalteriya hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish, uni xalqaro standartlar talablari asosida tashkil qilish, ularni ichki audit va nazoratini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati davlat oliy ta’lim tizimidagi va mustaqil oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va hisoboti, ichki audit va nazorati metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish, tadqiqot natijasida olingan ilmiy natijalardan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish hamda oliy o‘quv yurtlarida sohaga oid fanlarning o‘quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’lim tizimi faoliyatida buxgalteriya hisobi va nazorati metodologiyasini takomillashtirishga oid ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

oliy ta’lim muassasalarida stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblarda 174/1 - “Akademik stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”, 174/2 - “Ijtimoiy stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”, 174/3 - “Maxsus stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”, 174/4 - “Nomdor stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar” subschyotlari yordamida stipendiya oluvchilar hisobi yuritilishini takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalari (ToshDAU, Andijon QXAI, Termiz AIRI, Qoraqalpog‘iston QXAI), Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon mashinasozlik instituti tomonidan amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 29 maydagি 4/17-4/3-1437-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobini yuritishda hisob siyosatini ishchi schyotlar rejasи tarkibi, hisob registrlarini yuritish va uning axborot imkoniyatlarining oshirilishi natijasida hisob siyosatini tez va tejamlı tuzish imkoniyati soddalashgan va oliy ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy hisobotlarni tuzish imkoni yaxshilangan;

talabalar bilan hisob-kitoblar hisobini yuritishda 178 - “Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar” ishchi schyotini ochish hamda 178/1 - “Modul kredit bo‘yicha hisob-kitoblar”, 178/2 - “Talabalar turar joyi to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar” subschyotlarini qo‘llash asosida talabalar bilan to‘lov-kontraktdan tashqari mablag‘lar hisobini takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalari (ToshDAU, Andijon QXAI, Termiz AIRI, Qoraqalpog‘iston QXAI), Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon mashinasozlik instituti tomonidan amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 29 maydagи 4/17-4/3-1437-son ma’lumotnomasi). Buning natijasida 178 - “Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar” ishchi schyot kiritish hamda 178/1- “Kredit-modul bo‘yicha hisob-kitoblar” va 178/2- “Talabalar turar joyi to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar” schyotlarini amaliy qo‘llash talabalar to‘lov-

shartnomadan tashqari boshqa mablag‘lari to‘g‘risidagi hisob-kitoblari UzASBO dasturida foydalanish imkoniyati yaratilib, kredit modulъ tizimi bo‘yicha bo‘lgan qarzdorlik hamda talabalardan fanlarni qayta o‘zlashtirish bo‘yicha tushgan mablag‘lar hisobi nazoratga olingan, bu talabalar turar joyi to‘lovlar hisobini yuritilishi, ya’ni talabalar uchun hisoblanishi lozim bo‘lgan mablag‘lar hisobi va nazoratini takomillashtirish imkonini bergen;

budgetdan tashqari mablag‘larni hisobga olishda 263 - “Innovatsion jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadlar” schyotini qo‘llash orqali innovatsion faoliyatdan olinadigan daromadlar hisobini takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalari (ToshDAU, AndijonQXAI, TermizAIRI, Qoraqalpog‘iston QXAI), Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon mashinasozlik instituti tomonidan amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 4/17-4/3-1437-son ma’lumotnomasi). Natijada oliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyatdan olinadigan daromadlarni hisobga olishni takomillashtirishda 263-“Budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha boshqa daromadlar” nomli ishchi schyotini qo‘llash ilmiy va innovatsion faoliyat bilan bog‘liq barcha mablag‘lar har bir kafedralarning daromadlar va xarajatlar hisobini alohida sintetik schyotda yuritilishi, ma’lumotlarning aniqligini, shaffofligini ta’minlashi asoslangan;

kredit-modul tizimida talabaning fanlardan qarzdorligi bo‘yicha hisob-kitoblar, uni to‘lanishi holatiga oid schyotlarni tahlil qilish, to‘lov-shartnoma schyotiga kredit-modulga oid qarzdorligi bo‘yicha to‘lovlar hamda tizimni rivojlantirish jamg‘armasi schyotida hisobni olib borish imkonini beruvchi talabalar bilan kredit-modul hisobini budget tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadlar 262-schyotida yuritish orqali takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalari (ToshDAU, Andijon QXAI, Termiz AIRI, Qoraqolpog‘iston QXAI), Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon mashinasozlik instituti tomonidan amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 4/17-4/3-1437-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta’lim muassasalarida daromadlar va xarajatlarni shakllanishi va amalga oshirilishida buxgalteriya hisobi va nazoratini takomillashtirish tizimi orqali buxgaltyeriya xizmati iste’molchilarini sifatli axborot olish imkonini yaratilib, davlat mablag‘larining tejamliligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 4 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobjiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, jumladan, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, ob’yekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyatga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Oliy o‘quv yurtlarida buxgalteriya hisobi va nazoratining nazariy asoslari**” deb nomlanib, unda oliy o‘quv yurtlarida hisob tizimining shakllanishi tendensiyalari tahlil qilingan va uni rivojlantirish istiqbollarini shakllantirishning zarurligi va ahamiyati, budget hisobining nazariy asoslari, oliy ta’lim tizimida moliyaviy nazoratni tashkil qilinishi, uning o‘ziga xos jihatlari, ichki auditini tashkiliy asoslari tadqiq etilgan va ilmiy xulosalar shakllangan.

Oliy ta’lim – rivojlanadigan va o‘z-o‘zini rivojlanadiradigan tizim. U insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlari mobaynida to‘plangan tajribani yangi avlodlarning ongiga singdirish va fan, texnika, madaniyat, umuman, jamiyat va davlatni yanada rivojlantirish shart-sharoit yaratishga mas’ul etilgan. U o‘ziga xos bo‘lgan qonuniyatlar asosida faoliyat yuritadi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning bevosita ta’siri ostida rivojlanadi. Oliy ta’lim muassasasi esa ushbu maqsadlarni amalga oshiruvchi muassasadadir.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimi turli xil shaklda tashkil qilingan. Eng avvalo davlat budgeti hisobidan moliyalashtiriladigan oliy ta’lim tizimi va xususiy shaklda tashkil etilgan oliy ta’lim tizimiga ajratiladi. O‘zbekiston Respublikasida amaldagi tartibga ko‘ra oliy ta’lim muassasalari quyidagicha bo‘lishi belgilangan:

1. Davlat tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalari;
2. Xususiy oliy ta’lim muassasalari.
3. Xorijiy, qo‘shma oliy ta’lim muassasalari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sون Farmoniga asosan 2030-yilga borib yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 50 foizga, nodavlat oliy ta’lim muassasalari ulushi 35 foizga yetkazilishi belgilab berilgan. Bu o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalarining tashkiliy, huquqiy va moliyaviy tuzulmalarini takomillashuviga olib keldi. Natijda, ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va nazorat qilish jarayonlariga tubdan o‘zgartirishlar kirishiga olib keldi. Ushbu sub’yektlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritish va uni yanada rivojlantirish bo‘yicha amaliy ishlar qilinishini taqozo qilmoqda

Asrimiz boshidan buyon jahon miqiyosida ta’lim tizimida buxgalteriya hisobi va hisobotiga oid islohotlar olib borilmoqda, xususan kassa usulidan hisob-kitob usuliga o’tish masalalari keng ko‘lamda ko‘rib chiqilmoqda. Davlat sektoriga qarashli oliy ta’lim tizimi buxgalteriya hisobini korporativ hisobga yaqinlashtirish yoki birxillashtirish bo‘yicha qator mamlakatlarda davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IPSAS) ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Ana shu sababga ko‘ra, IPSAS ni amaliyotga tadbiq etilishi turli davlat hukumatlari tomonidan qabul qilinishiga va milliy standartlardan xalqaro standartlarga o’tish orqali amalga oshirish jarayonini tezlashtirmoqda.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil etish, xususan oliy ta’lim tizimida qo’llashdan manfaat shuki, birinchidan ta’lim tizimi xalqaro miqiyosda integrallashuviga erishish, ikkinchidan xorijiy investitsiyalarni olib kelish va kadrlar tayyorlashda o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro ikki tomonlama tajribalar almashish hamda shu orqali oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilishdir. Shuning uchun, O‘zbekistonda IPSAS bo‘yicha birinchi navbatda uslubiy muammolarni hal qilish, so‘ngra davlat sektorida buxgalteriya tizimini IPSASga moslashtirish jarayonini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekistonda keyingi yillarda olib borilayotgan islohotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillikni berilishi yuqorida sanab o‘tilgan muammolarga yechim sifatida qabul qilish mumkin.

O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari tomonidan IPSASga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash asnosida raqobatbardoshlikni oshirish, ularning faoliyatlari bo‘yicha to‘laqonli moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda shaffoflikni ta’minalash, ularning moliyaviy holati va pirovard moliyaviy natijalarini oqilona baholashni amalga oshirish asosiy maqsad qilib olinishi zarur. IPSASga muvofiq moliyaviy hisobotlarda ma’lumotlarni shakllantirish va oshkor qilish amaliyotini kengaytirish va O‘zbekistonligini oshirish muammolarini hal qilishda, yangicha strategiyani amalga oshirishda ishtirok etadigan yetakchi oliy oliy ta’lim muassasalarida tajriba sifatida qo’llanilib ko‘riliши kerak.

1-jadval

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida IPSASga o’tish tartiblari⁵

Milliy qonunchilik bo‘yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash
IPSAS bo‘yicha tayyorlashga tayyorgarlik ko‘rish IPSASga mos ravishda hisob siyosatini tuzish
IPSASga o’tish usullarini tanlash
IPSAS bo‘yicha buxgalteriya va nazorat organlari xodimlarini tayyorlash
Moliyaviy hisobotlar moliyaviy ko‘rsatkichlarni IPSASga mos ravishda tasniflash
UzASBO dasturini IPSAS qoidalari va tamoyillari bo‘yicha shakllantirish
IPSAS bo‘yicha buxgalteriya registrlarini ishlab chiqish
IPSAS bo‘yicha buxgalteriya registrlarini takomillashtirish va dasturiy ta’motni moslashtirish
IPSASni qo’llashda kassa usuli yoki hisoblash usulidan foydalanishga yoki integrallashgan usulni qo’llashga o’tishni takomillashtirish
IPSAS bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni tayyorlash

⁵ Muallif tomonidan tuzilgan

Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy hisobotlarini IPSAS asosida tayyorlanishi quyidagi manfaatlarni yuzaga keltiradi:

1. barcha manfaatdor tomonlar va moliyaviy hisobotlar ma'lumotlaridan foydalanuvchilar uchun keng ko'lamdagi ishonchli ma'lumotlarni shakllantirish;
2. moliyaviy hisobotlarda ohib beriladigan ma'lumotlarni shaffofligini ta'minlash va manfaatdor tomonlar oldida hisobdorlikni oshirish;
3. oliy ta’lim muassasasining umumiyligi faoliyatiga ta’sir etuvchi moliyaviy yo‘qotish va xavflar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish orqali turli to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli ko‘maklarni jalg etishga qaratish.

Hozirgi kunda Oliy ta’lim muassasalarining salmog‘i oshib borar ekan, ularning moliyaviy barqarorligini saqlash, o‘zining mustaqil boshqarish va nazorat qilish, yetarlicha kadrlar salohiyatini ushlab qolish muhim masalalardan biri bo‘lmoqda. Endilikda oliy ta’limga talabalar oqimini ham saqlab qolish, ularni oliy ta’limga jalg qilish bir muammo bo‘lsa, ikkinchi muammo institut ichki moliyaviy imkoniyatini saqlab turish, ya’ni mavjud moliyaviy imkoniyatdan oqilona foydalanishdan iboratdir. Buning natijasida oliy ta’lim muassasasini uzoq muddatlarda faoliyat yuritishini, ta’lim sohasini salmoqli davom etishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Buning uchun oliy ta’limga davlat tomonidan ajratilgan, to‘lov shartnoma asosida tushayotgan kontrakt mablag‘lari va o‘z faoliyatlaridan ishlab topgan mablag‘larni to‘g‘ri, qonuniy, smetalarda ko‘rsatilgan tartibda oqilona reja asosida foydalanish kerakligini bilamiz.

Hisob siyosatiga muvofiq, oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobning yuritilishi, buxgalteriya ishining to‘g‘ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi ularning o‘z vazifalarini to‘g‘ri bajarishini, mavjud va bo‘lg‘usi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, Universitet va institutlar rahbariyati va xodimlari uchun ularning faoliyatiga haqqoniyligi baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni ta’minalaydi.

Buxgalteriya hisobida birlamchi xarajatlar bo‘lmish ish haqi va stipendiya to‘lovlarini amalga oshirishda UzASBO dasturida ham bir qancha kamchiliklar mavjud. Dasturda bir tomondan hammasi mukammalga o‘xshab ko‘rinadi. Lekin talabalarga stipendiya hisoblash jarayonida bunday muammolarga duch kelmaysiz. Muammo qachonki stipendiyasiz to‘lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalarga moddiy rag‘bat yoki moddiy yordam hisoblanganda duch kelishingiz mumkin. Buning natijasida ushbu talabaga ham stipendiya hisoblanib, qayta o‘zgarish kiritib o‘zgartirish orqali to‘g‘ri rilanadi. Buning natijasida hisobotlarda barcha sarf-xarajatlar stipendiya fondida ko‘rinadi. Aslida to‘g‘ri, lekin moddiy yordam va mukofotga sarflangan mablag‘larni alohida ko‘rinishi, hisobotlar uchun alohida ma'lumot sifatida foydalanish imkoniyati yo‘q. Shuning uchun UzASBO dasturida bu holatga qo‘srimcha o‘zgartirishlar kiritib ma'lumotlar bazasidan to‘liq foydalanish zarur deb o‘ylaymiz. Shuningdek, stipendiya fondidan stipendiya turlari bo‘yicha hisob registrlarini alohida yuritish maqsadga muvofiq. Bu bilan stipendiya oluvchilarning hisobi to‘g‘ri va o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha alohida yuritilishi axborotlar aniq ma'lumot sifatida olish imkoniyati yaratiladi. Shu sababli stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblarni quyidagi tartibda taqsimlanishi taklif etiladi:

- 174/1 – “Akademik stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”;
- 174/2 – “Ijtimoiy stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”;
- 174/3 – “Maxsus stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”;
- 174/4 – “Nomdor stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”.

Buning natijasida stipendiya fondi sarfi yoki xarajatlar miqdori aniq taqsimlangani ko‘rinib turadi. Har bir stipendiya turi bo‘yicha ma’lumotlar bazasi shakllanib boradi. Foydalanuvchilarga axborot manbasi sifatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Oliy o‘quv yurtlarida budjet hisobi va nazoratini tashkiliy asoslari”** deb nomlanib, unda Oliy o‘quv yurtlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari, hisob siyosati va tashkiliy asoslari, budjet va kontrakt faoliyati, nazoratining o‘ziga xos jihatlari, buxgalteriya hisobini tashkil qilish amaliyoti, ularda ishchi schyotlarni ochish va amaliyotda qo‘llash bo‘yicha buxgalteriya o‘tkazmalari hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha amaliy takliflar keltirilgan.

Budjet hisobini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilgan hollarda, shuningdek budjet tashkiloti qayta tashkil etilganda hisob siyosatiga o‘zgartirishlar kiritish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda ta’lim tizimiga moliyaviy mustaqillik berilishi munosabati bilan ularning mustaqil rivojlanishi masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu jumladan oliy ta’lim muassasalarini akademik va moliyaviy mustaqilligini ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash, mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 1-avgustdagi 09/22/419/0694-son qarori qabul qilindi.

Buning natijasida davlat budgeti va moliyaviy mustaqil oliy ta’lim muassasalar bo‘yicha daromadlar va xarajatlarning 3 yil davomida o‘zgarishlar dinamikasini tahlil qilingan. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarning daromad va xarajatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak (2-jadval), 2020-yilda Toshkent davlat agrar universitetida jami daromadlar 97,2 mlrd so‘m bo‘lsa, jami xarajatlar 97,5 mlrd so‘mni tashkil qilib, ushbu moliyaviy yilni universitet 0,3 mlrd zarar bilan yakunlagan, 2021 yilni 0,8 mlrd so‘m, 2022-yilni esa 2,9 mlrd so‘m zarar bilan yakunlagan. Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti 2020 yilda jami daromadlari 50,4 mlrd so‘m, jami xarajatlari esa 49,8 mlrd so‘mni tashkil etib moliyaviy yilni 0,6 mlrd so‘m foyda bilan yakunlagan bo‘lsa, 2021-yilda 3,3 mlrd so‘m foyda ko‘rgan, 2022-yilga kelib esa 1,0 mlrd so‘m xarajatlari daromadlaridan ortib ketgan. Qoraqolpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2020-yilda jami daromaddlar 25,3 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, jami xarajatlar 25,2 mlrd so‘mni tashkil qilib moliyaviy yilni 0,1 mlrd so‘m foyda bilan yakunlagan, 2022-yilga kelib esa 0,6 mlrd so‘m xarajatlari daromadlaridan ortib ketgan. Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion

rivojlanish instituti esa 2020, 2021-moliyaviy yillarni 0,1 mldr so‘m foyda bilan yakunlagan bo‘lsa, 2022-yilni 0,8 mldr zarar bilan yakunlagan. Tadqiqot olib borilgan oliy ta’lim muassasalarida so‘ngi yillarda barchasida xarajatlari daromadlaridan ortib ketgan, jumladan, Toshkent davlat agrar universitetida bu salbiy jihat yildan-yilga ortib borayotganini ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval

Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalari daromad va xarajatlarining o‘zgarish dinamikasi⁶

(mlrd so‘m hisobida)

Oliy ta’lim muassasalari nomi	2020-yil			2021-yil			2022-yil		
	Jami daromad	Jami xarajat	Farqi (+;-)	Jami daromad	Jami xarajat	Farqi (+;-)	Jami daromad	Jami xarajat	Farqi (+;-)
Toshkent davlat agrar universiteti	97,2	97,5	-0,3	113	113,8	-0,8	126,7	129,6	-2,9
Andijon qishloq xo‘jaligi va agroyetxnologiyalar instituti	50,4	49,8	0,6	63,9	60,6	3,3	101,4	102,4	-1,0
Qoraqolpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agroyetxnologiyalar instituti	25,3	25,2	0,1	30,4	30,5	-0,1	37,8	38,4	-0,6
Termiz agrotexnologiyalar va innovasion rivojlanish instituti	18,8	18,7	0,1	34,6	34,5	0,1	34,2	35,0	-0,8

Tadqiqot o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalarda bugungi kunda xarajatlar daromadlarga nisbatan yuqoriligini ko‘rsatmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda ish haqi va to‘lov-shartnoma summalarining o‘zgarish dinamikasi katta ta’sir o‘tkazadi. Davlat oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-shartnoma miqdori 2018 yildan beri 10 foizga ortgan, ish haqi to‘lovlar 80 foizga ortgan. Dunyoda pandemiya davri kuzatilgan vaqtida mamlakatimizda aholini qo‘llab-quvvatlashga doir ijtimoiy siyosat amalga oshirildi. Shu bois, davlat oliy-ta’lim muassasalarida ish haqi bir necha bor oshirilsada, to‘lov-shartnoma miqdorlari oshirilmadi. Davlat oliy ta’lim muassasalarida ushbu holatla tabaqlashtirilgan to‘lov-shartnomadan tushgan mablag‘lar evaziga moliyaviy barqarorlik holatini saqlab turdi.

Keyingi muhim masala Oliy ta’lim tizimida xarajatlarning nazorati hisoblanadi. Chunki ta’lim tizimida daromadlarning maqsadli sarflanishining nazoratini amalga oshirida o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Shu jumladan, ushbu xarajatlarning nazoratini tashkil qilish jarayonida maqsadli sarflanishi va ortiqcha hamda maqsadsiz sarflarning yo‘l qo‘ylmasligi hisoblanadi.

⁶ Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi OTM ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Oliy ta’limga kredit modul tizimini joriy qilinishi talabalarning fanlarni qayta o‘zlashtirishi, o‘qishga tiklanishi, kursdan qoldirilishi bilan bog‘liq holatlarni barchasi moliyaviy yo‘l bilan amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi. Bizga ma’lumki, ta’lim muassasalarida barcha moliyaviy holatlar buxgalteriyada o‘z aksini topishi zarur. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonidagi holatlarni o‘zgarishi buxgalteriya hisobi uslublarini shuningdek, har bir oliy ta’lim muassasasi o‘zini xususiyatidan kelib chiqib hisob siyosatini yanada takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda (3-jadval).

3-jadval

Oliy ta’lim muassasalari buxgalteriya hisobida amalga oshirilgan muomalalar bo‘yicha buxgalteriya o‘tkazmalari⁷

Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo‘luvchi hujjat
Talabalarga to‘lov-shartnoma summasi hisoblandi	175	252	Talaba bilan tuzilgan shartnoma
Talaba to‘lov-shartnoma summasini to‘ladi	111	175	To‘lov topshirnomasi
To‘lov-shartnoma asosida ta’lim olayotgan talabaga stipendiya hisoblandi	251	174	OTM rahbari buyrug‘i, talabalar bilimini baholash qaydnomasi
To‘lov-shartnoma asosida ta’lim olayotgan talabaga stipendiya to‘landi	174	111	OTM rahbari buyrug‘i, talabalar bilimini baholash qaydnomasi
To‘lov-shartnoma asosida ta’lim olayotgan talabaga moddiy yordam hisoblandi	251	174	OTM rahbari buyrug‘i, fakultet dekani bildirgisi
To‘lov-shartnoma asosida ta’lim olayotgan talabaga moddiy yordam to‘landi	174	111	OTM rahbari buyrug‘i, fakultet dekani bildirgisi
Semestr natijalari bo‘yicha fan(lar)ni o‘zlashtira olmagan talabalarga kredit modul tizimi bo‘yicha fanni qayta o‘qitish qiymati hisoblandi	175	252	O‘zR VMning 2020 yil 31 dekabrdagi 824-sonli qarori, talabalar bilimini baholash qaydnomasi
Talabalarga kredit-modul summasi hisoblandi	178/1	262	Fakultet dekani bildirgisi, talabalar bilimini baholash qaydnomasi
Talabalar turar joyida yashovchi talabaga shartnoma asosida ijara puli hisoblandi	178/2	262	Talaba bilan tuzilgan ijara shartnomasi
Talabalar turar joyida yashovchi talabaga shartnoma asosida hisoblangan ijara puli to‘landi	112	178/2	Talaba bilan tuzilgan ijara shartnomasi
Semestr natijalari bo‘yicha fan(lar)ni o‘zlashtira olmagan talabalarga kredit modul tizimi bo‘yicha fanni qayta o‘qitish qiymati to‘landi	112	178/1	O‘zR VMning 2020 yil 31 dekabrdagi 824-sonli qarori, talabalar bilimini baholash qaydnomasi

Ushbu holatdan ko‘rinib turibdiki, huddi shunday holat bo‘yicha talabalar turar joyi munosabatlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Talabalar turar joyi bilan ham shartnomalar hisobi UzASBO dasturidan o‘z aksini topmagan. Shuning uchun, yuqoridagi o‘tkazmalarni inobatga olgan holda, biz daromad va xarajatlarni hisobga olishda taklif qilanayotgan 178 – “Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar” ishchi schyoti alohida hisobga olinishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu schyotni quyidagi analistik schyotlar bo‘yicha yuritilishi belgilandi:

⁷ Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

- 178/1 – “Talabalar bilan modul kredit bo‘yicha hisob-kitoblar”;
 178/2 – “Talabalar bilan yotoqxona to‘lovlari bo‘yicha hisob-kitoblar”

Biz oliy ta’lim muassasalar buxgalteriya hisobini yuritishda va schyotlar rejasি amaldagi tizimining alohida schyotlarida tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Talabaga fanlardan qarzdorlik bo‘yicha modul kredit summasи hisoblanishi va uni to‘lanishi holati bo‘yicha schyotlarni tahlil qilinganda, to‘lovshartnoma schyotiga kredit modul bo‘yicha qarzdorligi hisoblanishi va qarzdorilikni ushbu schyotga to‘lanishi mumkin.

4-jadval

Semestr natijalari bo‘yicha fanlardan akademik qarzdor talabaalrniqayta o‘zlashtirish uchun to‘lagan mablag‘larining buxgalteriya hisobida aks ettirilishi (OTMlar misolida)⁸

252-schyot (to‘lov kontrakt)	262-schyot (rivojlantirish jamg‘armasi)
Termiz davlat universiteti	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti	"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
Andijon mashinasozlik instituti	Namangan to‘qimachilik sanoati instituti
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti	Andijon davlat chet tillari instituti
Buxoro davlat pedagogika instituti	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
Buxoro davlat universiteti	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Geologiya fanlari universiteti	Ipak yoli turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
Guliston davlat pedagogika instituti	Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Guliston davlat universiteti	Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
Ishoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti	Namangan davlat pedagogika instituti
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	Namangan davlat universiteti
Namangan muhandislik-qurilish instituti	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Namangan muhandislik-texnologiya instituti	O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi	Samarqand davlat chet tillar instituti
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti	Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	Termiz davlat pedagogika instituti
Toshkent davlat transport universiteti	Toshkent davlat agrar universiteti

⁸ O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha o‘rganilgan ma’lumoti asosida tayyorlandi

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarining 60 foizi modul kredit hisob-kitobini to'lov-kontrakt schyotida amalga oshirayotganligi ma'lum. Qolgan 40 foiz OTMlar modul kredit hisob-kitobini rivojlantirish jamg'armasida olib bormoqda. (4-jadval) Ushbu masalada oliy ta'lim vazirligi tomonidan qaysi hisobda yuritilishi bo'yicha qat'iy talab darajasidagi shartlari ko'rsatilmagan.

Shu sababli modul kredit tizimi bo'yicha hisob-kitoblarni budget tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha daromadlar 262-schyotida yuritish taklifini bermoqdamiz. Buning sabablarini yuqoridagi jadvallarimizda ham ko'rishimiz mumkin. Agar talabaga fanlarni qayta o'qitish uchun to'lov summasi hisoblansa, to'lov-shartnoma hisobiga bog'lanib qoladi va modul-kredit bo'yicha to'lovlarni to'lov-shartnoma schyotiga to'lanishi kerak bo'ladi. Lekin to'lov-shartnoma schyotiga tushgan modul kredit uchun tushgan mablag'larni xarajatlar smetasida ko'rsatilmaganligi uchun ushbu mablag'lardan foydalanish mumkin emas. Natijada buning hisobini alohida ko'rsata olishni imkon yo'q bo'lib qoladi.

Agar rivojlantirish jamg'armasi schyotida modul kredit hisob-kitobini yuritadigan bo'lsa, dasturda talabaga modul kredit bo'yicha hisoblanish bog'liqligi yo'q. Shuning uchun modul kredit bo'yicha talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar uchun 178 - schyotini ochish va budget tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha daromadlar 262-schyoti bilan bog'lanishi, modul kredit bilan bog'liq barcha muammolar bartaraf bo'ladi. Masalan, talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar bo'yicha (talabalar turar joyi hisob-kitobi) bunga yaqqol misol bo'la oladi. Chunki hozirgi kungacha dasturda ushbu holat bo'yicha hech qanday holat qayd etilmagan. Talabalar turar joyiga joylashgan barcha talabalarga to'lov summasi hisoblanishi ko'rsatilmasdan faqat to'lovnii amalga oshirgan talabalar uchun to'lov summasi hisoblanib hisobotlar tayyorlangan. UzASBO dasturida talabalar bilan to'lov-kontraktdan tashqari boshqa hisob-kitoblar yuritilmagan. Aslida buxgalteriya hisobida barcha jarayonlar to'liq aks ettirilishi kerak. Modul kredit bilan bog'liq yuqorida taklif berilgan yangi ishchi schyotlarning bog'lanishi, talabalar turar joyi bilan bog'liq hisob-kitoblarda ham bartaraf etiladi. Ushbu holatlardan kelib chiqib, xulosa qilib aytishimiz mumkinki, modul kredit bo'yicha hisob-kitoblarni to'lov-shartnoma schyotida emas, balki budget tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasi schyotida hisobini olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mavjud buxgalteriya tizimlarini birlashtirish muammolarini hal etishning birinchi navbatda o'quv va ilmiy jarayonning butun majmuasini qamrab oluvchi uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishdir. Bu esa buxgalteriya hisobini tashkil etish va ularning moliyalashtirish manbalariga taalluqlidir. Qayta o'zlashtirish bo'yicha modul kredit tizimidagi jarayonlarni tashkil etish, moliyalashtirish va qo'shimcha to'lovlarni amalga oshirishga barham beradi deb hisoblaymiz.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobii "**Oliy o'quv yurtlarida moliyaviy nazorat va hisobotni audit tekshiruvini takomillashtirish**" deb nomlanib, ushbu bobda Oliy o'quv yurtlarida moliyaviy nazoratni xalqaro standartlar asosida amalga oshirishni takomillashtirish, OO'Yu ichki auditini tashkil etish hamda uning o'ziga xos jihatlari oolib berilgan.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari ilmiy va innovatsion faoliyatdan olinadigan daromadlarini 262 - “Budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha hisob-kitoblar” schyotida yuritiladi. Bunda oliy ta’lim muassasasida barcha fakultet, kafedra va professor-o‘qituvchilar tomonidan amalgamoshirilgan ilmiy va innovatsion faoliyat natijalari asosida topilgan mablag‘lar hisobga olinadi. Soxa buyurtmalari asosida o‘tkazilayotgan tadqiqotlar orqali topilgan mablag‘larni buxgalteriyada hisobga olishda barcha professor-o‘qituvchilar uchun bitta schyotdan foydalanish, ishlab topilgan mablag‘larni sarflanishida hisob siyosatida mukammal uslubiy yondashuvni aks ettirmaslik professor-o‘qituvchilar tomonidan haqli e’tirozga sabab bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarda barcha qo‘srimcha daromadlar 262 - schyotda hisobi yuritilishi to‘g‘risida yuqorida ta’kidlab o‘tdik va bu schyotda jamlanishi buxgalteriya hisobini yuritilishida ma’lum bir kamchiliklarni kelitirib chiqaradi.

Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va innovatsion faoliyatdan olinadigan daromadlarni hisobga olishda taklif etilayotgan “Budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha boshqa hisob-kitoblar” 263-ishchi schyotini ochish hamda amaliy qo’llash maqsadga muvofiq. Ushbu ishchi schyotda oliy ta’lim muassasasi tomonidan ilmiy va innovatsion faoliyatdan topilgan daromadlarni har bir kafedralar uchun analistik hisobda alohida yuritish tavsiya etiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad har bir kafedraning daromadlarini nazorat qilish bilan bir qatorda ilmiy va innovatsion faoliyatini ham nazorat qilib borish demakdir. Yaqin kelajakda barcha oliy ta’lim muassasalarning asosiy daromad manbayiga aylanishi ko‘zda tutilgan ushbu innovatsion faoliyatni hozirdan nazoratga olib, hisobotlarini soddallashtirib, oydinlashtirib borilsa, oliy ta’lim muassasasi faoliyati yanada yuksalib boradi deb hisoblaymiz. Alovida hisobda yuritishiga sabab bo‘luvchi omillardan yana biri kafedralar tomonidan ishlab topilgan mablag‘lar sarfi miqdorini chegeralanganligidir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Budget tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minalash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 03.09.1999-yildagi 414-sodn qarorining 4-bob 29 band 3-xat boshida ushbu holat bo‘yicha rivojlantirish jamg‘armasining 25 foizgacha miqdori ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag‘batlantirish tadbirlariga sarflanishi ko‘rsatilgan. Ushbu qonunchilikka o‘zgartirish kiritib, ish haqi va moddiy rag‘bat miqdorning sarfini 75 foizgacha ko‘tarish kafedralardagi professor-o‘qituvchilarga motivatsiya va qo‘srimcha ishlashga hamda rivojlantirish jamg‘armasini boyitishga xizmat qiladi.

Xalqaro ichki auditorlar instituti mutaxassaslari ichki auditning amaliy va samaradorlik standartlarini ishlab chiqish bo‘yicha mas’ul hisoblanadi va ular ichki auditorlarning ahloq kodeksini shakllantirish va xalqaro professional amaliyot asosini ishlab chiqishda tegishli talablarni belgilaydi. Xalqaro ichki audit standartlariga muvofiq, ichki audit - korporativ boshqaruv, nazorat va risklarni boshqarish jarayonlarini baholashda izchil va tizimli yondashuvdan foydalangan holda ushbu jarayonlarning samaradorligini oshirishda tashkilot o‘z maqsadlariga erishishda yordam berish uchun tashkilot faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan mustaqil, ob’yektiv va ishonchli maslahatlar berish faoliyati hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, davlat sektorida ichki auditning asosiy vazifasi davlat moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqarish jarayonlarini tadqiq qilish, qabul qilingan qarorlar ijrosiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar va shart-sharoitlarni aniqlash, qonunga xi洛f, nomaqbul, samarasiz, qonunbuzarliklarga sabab bo'ladigan qarorlarni aniqlashdan iborat. Undan tashqari, salbiy omillarni bartaraf etish yoki kamaytirishga, shu orqali ichki moliyaviy nazorat va risklarni boshqarish tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar berish maqsadida moliyaviy va nomoliyaviy aktivlardan samarasiz foydalanishni olib berishlari kerak. Ichki audit davlat moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqarish jarayonini doimiy ravishda baholab borishi, xususan, risklarni boshqarishda nazorat tadbirlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanib xo'jalik faoliyatini tekshirishi zarur, shu bilan birga moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni samarali boshqarishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, davlat sektoridagi ichki auditni samarasiz tashkil etilishi oqibatida aktivlarning xarakatlanishida zaruriy boshqaruv qarorlarini qabul qilinishiga sabab bo'lувchi qarorlarni qabul qilinishiga to'sqinlik qiladi. Davlat sektorida moliyaviy nazorat organlari tekshiruvlarida bunday maqsadlar inobatga olinishi sezilarli darajada emas. Shuning uchun, davlat sektorida ichki auditni tashkil etish moliyaviy nazorat organlari tekshiruvlaridan keskin farq qilishi ayni haqiqatdir. Bizning fikrimizcha, davlat sektorida o'zkaziladigan tekshiruvlarni ichki audit nuqtai nazaridan, risklarni baholash va profilaktika (oldini olish) bo'yicha professional taklif va tavsiyalarini berishidan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir, undan tashqari ushbu xodimlarga mustaqillik berilishi, zamonaviy auditorlardek xarakat qilishlariga sharoitlar yaratish kerakligini ta'kidlamoqchimiz. Moliyaviy nazorat boshqarmasi mutaxassis xodimlari o'zlarini taftishchi deb emas, balki auditorlardek tutishlari shart deb hisoblaymiz.

Oliy ta'lif muassasalarida moddiy javobgar shaxslarning zimmasidagi moddiy qiymatliklarni nazorat qilish, inventarizatsiyadan o'tkazish, yaroqli asosiy vositalarni qayta baholash, yaroqsiz va muddati o'tgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish bo'yicha o'z vaqtida boshqaruv qarorlarini qabul qilish zarur. Bu hisob siyosatini o'z vaqtida amalga oshirilishiga, hujjatlarni me'yor bo'yicha shakllanishiga olib keladi. Muddati o'tgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish buxgalteriya hisobida vazirlik xulosasi orqali amalga oshiriladi. Bu esa ayniqsa viloyatdagi OTMlarda o'z vaqtida amalga oshirilmaydi va kechikib ketishiga sabab bo'ladi. Buning uchun, vazirlik o'z vaqtida xizmat safariga mutaxassis jo'natish kerak yoki bosh auditor xulosasi bilan muddati o'tgan yaroqsiz asosiy vositalarni hisobdan chiqarish ruxsat berilishi maqsadga muvofiq. Odatda vazirliklar tasarrufidagi OTMlarga mutaxassislarini jo'natish, ularni amalga oshirayotgan hisob siyosatini qay darajada ekanligini nazorat qilish faqat elektron holatlarda amalga oshirilmoqda. Asosiy vasitalarning mavjud yoki ularning qanday holatda ekanligini faqat rasm va elektron shakllarda kuzatib borilayotgani hammamizga ma'lum. Shuning uchun asosiy vositalarni hisobdan chiqarishda auditor zimmasiga yuklash va uning hisobotlari orqali vazirlik ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Albatta, barcha aosiy vositalarga emas, balki bu holatda asosiy

vositalarning qiymati va shaklidan kelib chiqib, ma'lum miqdordagi yoki muddati nuqtai nazardan inobatga olish kerakligini ta'kidlamoqchimiz.

O'zbekistonda davlat sektorida moliyaviy nazoratni tubdan isloh qilishda uning funksiyalarini aniq belgilash va har bir davlat ob'yekti bo'yicha tashkil etiladigan ichki audit tizimini bozor iqtisodiyotiga o'tish talablaridan kelib chiqib belgilash zarur, xususan oliv ta'lim muassasalari tizimida bu bo'yicha qator muammolarni xorijiy tajribalar va tamoyillar asosida hal etish darkor. Shuning uchun, davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va ichki auditga o'tishda xalqaro tajribalar va tamoyillarga asoslanish doimiy qiziqishni uyg'otib bormoqda.

Xususan, davlat moliyaviy nazorat tizimining ishonchliligin, davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag'larini sarflashning tejamkorligi va samaradorligini baholash uchun ichki auditni rejalashtirish uchun uning ob'yektlarini tanlashda quyidagi mezonlardan foydalanish taklif etiladi:

budget va budjetdan tashqari ajratiladigan mablag'lar hajmi yoki tushumlar manbalari bo'yicha budget tushumlari hajmini aniqlash;

nazorat tuzilmalari tomonidan tekshirish uchun rejalashtirilgan davrda aniqlangan qoidabuzarliklarning (kamchiliklarning) ahamiyatini aniqlash;

oldingi tekshiruvdan keyingi hodisalar va o'zgarishlar holati hamda unda keltirilgan buzilishlarni bartaraf etilishi holatini aniqlash;

ilgari o'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha berilgan tavsiyalarning to'liqligi va o'z vaqtida bajarilishini aniqlash;

tekshiruv o'tkazish mobaynida qonunchilik hujjatlariga kiritilgan o'zgarishlarni inobatga olinishini aniqlash;

tekshiruv o'tkazilayotgan ob'yektda KPI tiziminiadolatli va berilgan mezonlarga mosligini aniqlash.

5-jadval

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida tarkibiy bo'linmalar bo'yicha ichki audit o'tkazish tartiblari⁹

Ichki audit o'tkazish ob'yekti	Ichki audit o'tkazish tartiblari	Ichki audit o'tkazish davri	Tekshiriladigan hujjatlar tarkibi
O'quv-uslubiy boshqarma	Sotib olingan moddiy texnika vositalari, turli o'quv qurilmalari va axborot texnologiyalari hamda dasturiy ta'minot vositalari holati bo'yicha inventarizatsiya o'tkazish, Tekkinga berilgan moddiy texnika va o'quv qurilmalari hamda o'quv adabiyotlarini tekshirish		
Raqamlı ta'lim texnologiyalari markazi			
O'qitishning texnik vositalari bo'limi			
Axborot resurs markazi			
Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi			
		Har chorakda	Sharnomalar, dalolatnomalar

⁹ Muallif tomonidan ishlangan

5-jadval davomi


Xalqaro hamkorlik bo‘limi	Xalqaro hamkorlik, xorijiy davlatlarda malaka oshirish va xalqaro loyihalarni amalgalashish bo‘yicha xizmat safarlari va TMZlar uchun sarflangan mablag‘larni tekshirish	Yil yakunida	Xizmat safarlari xujjalatlari, dalolatnomalar, qaydnomalar
Iqtidorli talabalarning ilmiy ishlanmalarini tashkil etish bo‘limi	Anjumanlar o‘tkazish sarflari, iqtidorli talabalarning ilmiy ishlanmalarini yaratish va tayyorlash xarajatlarini tekshirish	Har chorakda	Shartnomalar, schyot-fakturalar, dalolatnomalar, qaydnomalar
Fakultetlar	HEMIS dasturiga kiritilgan dars soatlari, reyting ballari, fanlardan akademik qarzdorlik bo‘yicha ma’lumotnomalar	Har chorakda	Buyruq va farmoyishlar, qaydnomalar, jurnallar, o‘quv va ishchi rejalar
Sirtqi bo‘lim			
Magistratura			
Ilmiy-innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish bo‘limi	Ilmiy-innovatsion faoliyat natijalarini sotish va tijoratlashtirish xarajalari va tushumlarni tekshirish	Har chorakda	Lisenziya va patentlar, shartnomalar, schyot-fakturalar, dalolatnomalar
Buxgalteriya	Ish haqi, stipendiyalar, hisob-kitoblar, budget va budgetdan tashqari mablag‘larni sarflanishi, kelib tushgan tushumlar, sotib olingan moddiy texnika va o‘quv qurilmalari, sarflangan TMZlar va boshqalar	Har chorakda	UzASBO ma’lumotlari, buyruqlar, farmoyishlar, dalolatnomalar, qaydnomalar, moliyaviy hisobotlar
Reja-moliya bo‘limi	Moddiy texnika sotib olish, ularni saqlab turish va tovar-moddiy zahiralarni sarflash xarajatlarini tekshirish	Har chorak yakunida	Buyruq va farmoyishlar, dalolatnomalar, qaydnomalar va ichki hisobotlar
Devonxona va arxiv bo‘limi			
Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi			
Ishlar boshqarmasi bo‘limi			
Monitoring va ichki nazorat bo‘limi			
Xodimlar bo‘limi			
Kafedralar	O‘quv, uslubiy, innovatsion, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar, dars soatlari, ularni qayd etilishi, yillik rejalarining bajarilishi hamda shaxsiy ish rejalarini bajarilishi holatini tekshirish	Har oyda kamida 2 ta kafedra	O‘quv va ishchi reja, tabel, qaydnomalar, hisobotlar

Oliy ta’lim tizimida ichki audit xizmatini samarali tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Universitet va institutlarning ichki audit faoliyatining eng muhim tomonlaridan biri ta’lim tizimidagi ehtimoliy tashqi va ichki risklarni aniqlash va tahlil qilish, risk darajasini minimallashtirish yoki yo‘qotishlar

imkoniyatini izlab topish va ularni minimallashtirish bo‘yicha ish olib borilishi lozim.

Oliy ta’lim tizimida moliyaviy nazorat va ichki audit masalasi ularning faoliyatini tashkil qilish va moliyaviy boshqaruv tiziminining bir qismi hisoblanadi. Shunday qilib, oliy ta’lim tizimida ichki audit bu – ichki auditor tomonidan belgilangan auditorlik amallari yordamida o’tkaziladigan, ta’lim tizimida ichki nazorat tizimini tashkil qilishning sifati va samaradorligini doimiy ravishda kuzatish, baholash va uni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berish orqali faoliyatini yaxshilash bo‘yicha mustaqil va ob’yektiv faoliyat hisoblanadi.

Oxirgi yillarda oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni xo‘jasizlarcha ishlatish va talon-taroj qilinish holatlari uchrab turibdi. Bu holat moliyaviy nazoratni tizimli tashkil qilinmaganligi ortidan sodir bo‘lmoqda. Tadqiqot o‘kazish jarayonida respublikada faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumot olish uchun OO‘Yu larining rasmiy saytlari tahlil qilindi. Natijada ko‘p sonli oliy ta’lim muassasalarining daromadlari, xarajatlari, moliyaviy holati to‘g‘risida ma’lumot topilmadi yoki ma’lumotlarini saytga qo‘yish imkoniyati bo‘lmaganligini ko‘rshimiz mumkin.



1-rasm. Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy nazoratni tashkil qilishning taklif etilayotgan namunaviy sxemasi.¹⁰

¹⁰ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Faqatgina TIQXMMI MTU, TMI, AndMI kabi sanoqli oliy ta’lim muassasalarining rasmiy saytlarida ba’zi moliyaviy axborotlari mavjudligi aniqlandi. Bugungi kunda moliyaviy nazoratni amalga oshirishda taklif etilayotgan sxema (1-rasm) hukumatimiz tomonidan qo‘yilayotgan ochiqlik, shaffoflik, adolatlilik tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Chunki har bir davlat muassasasida budjet mablag‘lari ustidan moliyaviy nazoratni, ayniqsa jamoatchilik nazoratini tashkil etilishi har bir rahbarni, sarflayotgan mablag‘lari ustida o‘ylanishga va fikr yuritishga hamda faqat eng zarur bo‘lgan xarajatlarni amalga oshirishga majbur qiladi. Ortiqcha sarf-xarajatlarga yo‘l qo‘ymaydi. Buning uchun har bir oliy ta’lim muassasasi moliyaviy axborotlarni (xarajatlar smetasi, amalga oshirayotgan xarajatlar va daromadlar) rasmiy saytiga muntazam joylashtirib borilishi talab etilishi zarur. Buning natijasida ham qonuniy, ham adolatli prinsipda ish faoliyati davom etadi.

XULOSA

Ushbu dissertatsiya ishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bizning firimizcha, budjet tizimida hisob siyosatini tuzish davlat sektorida jumladan, oliy ta’lim muassasalarida umumiyl foydalaniladigan ishchi schyotlar rejas, buxgalteriya hisobini tashkil qilish tartibi va nazorati, moliyaviy hisobotni tuzish uchun asos bo‘ladigan manbalar, buxgalteriya hisobining tamoyillaridan bevosita foydalanish masalalarini o‘z ichiga oladi.
2. Qonunchilik va normativ hujjatlarni o‘rganish va tahlil qilish O‘zbekiston Respublikasidagi moliyaviy nazorat tizimini, uni amalga oshirish va uni tartibga solishning yetarliligi va sifatini baholash, moliyaviy nazoratni normativ, axborot, uslubiy va tashkiliy qo‘llab-quvvatlashdagi uning imkoniyatlaridan foydalanishga to‘sinqinlik qiladigan va shoshilinch yechimlarni talab qiladigan ba’zi bo‘shliqlarni aniqlashga imkon berdi.

3. Talabalarga stipendiya hisoblash jarayonida kamchiliklar, qachonki stipendiyasiz to‘lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalarga moddiy rag‘bat yoki moddiy yordam hisoblanganda duch kelishingiz mumkin. Buning natijasida ushbu talabaga ham stipendiya hisoblanib, qayta o‘zgarish kiritib o‘zgartirish orqali to‘g‘rilanadi. Buning natijasida hisobotlarda barcha sarf-xarajatlar stipendiya fondida ko‘rinadi. Aslida to‘g‘ri lekin moddiy yordam va mukofotga sarflangan mablag‘larni alohida ko‘rinishi, ma’lumotlar uchun alohida foydalanish imkoniyati yo‘q. UzASBO dasturida bu holatga qo‘shimcha o‘zgartirishlar kiritib ma’lumotlar bazasidan to‘liq foydalanish zarur deb hisoblaymiz. Shunig uchun, oliy ta’lim muassasalarida stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblarda 174/1 - “Akademik stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”, 174/2 - “Ijtimoiy stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”, 174/3 - “Maxsus stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”,

174/4 - “Nomdor stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar” subschyotlari orqali yuritilishi maqsadga muvoviq.

4. Oliy ta’lim tizimida buxgalteriya ishchi schyotlar rejasiga talabalar bilan hisob – kitoblar bo‘yicha 178-“Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar” schyotini ochish hamda uning tarkibida 178/1-“Modul kredit bo‘yicha hisob-kitoblar” va 178/2-“Talabalar turar joyi to‘lovlari bo‘yicha hisob-kitoblar” schyotlari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijada ushbu schyotlarni qo‘llash talabalar to‘lov-shartnomadan tashqari boshqa mablag‘lar to‘g‘risidagi hisob-kitoblari UzASBO dasturida foydalanish imkonini beradi.

5. Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va innovatsion faoliyatdan olinadigan daromadlarni hisobga olishda 263-“Innovatsion jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadlar” ishchi schyotini ochish hamda amaliy qo‘llash maqsadga muvofiq. Ushbu ishchi schyotda oliy ta’lim muassasasi tomonidan ilmiy va innovatsion faoliyatdan topilgan daromadlarni har bir kafedralar uchun analistik hisobda alohida yuritish tavsiya etiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad har bir kafedraning daromadlarini nazorat qilish bilan bir qatorda ilmiy va innovatsion faoliyatini ham nazorat qilib borish demakdir.

6. Oliy ta’lim muassasalarining kredit-modul tizimida talabaning fanlardan qarzdorligi bo‘yicha hisob-kitoblar, uni to‘lanishi holatiga oid schyotlarni tahlil qilish, to‘lov-shartnoma schyotiga kredit-modulga oid qarzdorligi bo‘yicha to‘lovlar hamda tizimni rivojlantirish jamg‘armasi schyotida hisobni olib borish imkonini beruvchi talabalar bilan kredit-modul hisobini budget tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadlar 262 - schyotida yuritish muassasani modul-kredit tizimi hisobini aniq va shaffof yuritishiga olib keladi.

7. Dunyo hamjamiyatida budget tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida dunyoga mashhur universitetlarni juda ko‘philigi o‘zini mablag‘ bilan ta’minalash tizimi asosida faoliyat yuritadi va ular tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlardan ko‘plab mablag‘ kelib tushadi va ushbu institutni yanada rivojlantirish uchun imkoniyat yaratiladi. Ushbu tajribadan O‘zbekistonda ham keng foydalanish va o‘zini mablag‘ bilan ta’minalash, shartnoma, qo‘srimcha xizmatlar ko‘rsatish natijasida o‘z-o‘zini moliyalashtirish tizimi rivojlantirilmoqda. O‘zbekiston amaliyotiga davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini qo‘llash natijasida yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlarni tuzishga, shuningdek, davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratildi, budget tizimi bo‘yicha moliyaviy hisob va statistik hisobotlarning yuqori darajada integrasiyalashuvini ta’minalaydi, axborotlarning ishonchliligi va to‘liqligining oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi.

8. Oliy ta’lim tizimida ichki audit uchun rejalshtirilgan maqsad va vazifalarga erisha olishini aniqlash maqsadida monitoring va tekshiruvga qo‘l urishi juda muhim

hisoblanadi. Buning uchun jamoatchilik nazoratini shakllantirish zarur deb hisoblaymiz.

Bunda ichki auditning 5 bosqichli vazifasiga katta e'tibor berilishi lozim:

1) g‘aznachilik tizimi uchun korporativ boshqaruv tuzilmasi orqali Oliy ta’lim tizimini nazorat qilish jarayonlarini aniqlash;

2) ichki auditning rolini aniqlash;

3) audit dasturini ishlab chiqish;

4) zaruriy resurslarni olish;

5) tekshiruv mexanizmlarini joriy etish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**АНДИЖАНСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И
АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

АСРАНОВ АБДУРАСУЛ ХОШИМЖОНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА И КОНТРОЛЯ В СИСТЕМЕ
ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

08.00.08 – “Бухгалтерский учёт, экономический анализ и аудит”

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером В2022.2.PhD/Iqt2232.

Диссертация выполнена в Андижанском институте сельского хозяйства и агротехнологий.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.andqxai.uz) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.zyonet.uz).

Научный руководитель: **Ибрагимов Абдугапур Каримович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты **Абдусаломова Нодира Баходировна**
доктор экономических наук, профессор

Машарипов Озод Алимович
доктор экономических наук, доцент

Ведущая организация: **Национальный исследовательский университет
«Ташкентский институт инженеров ирригации и
механизации сельского хозяйства»**

Защита диссертации состоится «3 » 10 2024 года в 12⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc03/10.12.2019.1.16.01 по присуждению научных степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (0371) 239-28-72, Факс: (0371) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрировано под номером 1508). Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (71) 239-28-72, факс: (71) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz

Автореферат диссертации разослан «15 » 09
(протокол реестра рассылки 62 за «15 » 09 2024 г.)



С.У. Мехмонов

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

У.В.Гафуров

Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

С.К.Худойкулов

Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Усиление глобальной конкуренции на мировом уровне требует улучшения деятельности системы высшего образования по предоставлению высококвалифицированных специалистов. Налаживание эффективной деятельности высших образовательных учреждений, повышение качества образовательных услуг, расширение возможностей студентов для обучения требует не только увеличения расходов на эту сферу, но и простоты эффективного использования имеющихся ресурсов и их развития. «Расходы системы высшего образования в странах-членах Организации экономического сотрудничества и развития составляет в среднем 1,5 процентов ВВП. При этом доля частного сектора составляет 1 процент ВВП, а доля государства — 0,5 процента ВВП. В частности, в 2015 году доля государства в финансировании системы высшего образования была высокой в странах Австралии, Норвегии и Финляндии, а расходы в этой сфере составили более 1,5 процентов ВВП. К странам с большой долей частного сектора в финансировании высшего образования относятся США, Великобритания и Чили. В этих странах доля частного сектора в расходах на высшее образование составляла в среднем 1,2-1,7 процентов ВВП¹. С этой точки зрения особое внимание уделяется организации учета, отчетности и аудита эффективного и рационального использования государственного бюджета и собственных средств, средств частной системы образования на основе требований международных стандартов.

Во всем мире проводятся научные исследования по вопросам совершенствования учета и контроля в деятельности системы высшего образования. Одними из приоритетных направлений научных исследований, проводимых в этом направлении, являются изучение бюджетной системы и управления ею, методов и направлений организации учета исполнения бюджета, характера системы образования, ее самофинансирования, эффективного использования этих средств, обеспечения открытости информации и повышения подотчетности, совершенствования информационного обеспечения финансовой отчетности в бюджетной системе, адаптации развития системы образования к международным стандартам, ведения учета бюджета и собственных средств, организации учета и контроля на уровне международных стандартов, повышения информационных возможностей финансовых отчетов, обеспечения их финансового контроля.

В Республике Узбекистан в условиях цифровизации экономики особое внимание уделяется проводимым реформам в системе высшего образования, включая организацию бухгалтерского учета на основе международных стандартов и развитие системы контроля, международных стандартов аудита и международных принципов контроля. В частности, с 1 января 2022 года запущен программный комплекс «Государственный аудит», согласно которому реализуются все меры государственного финансового контроля

¹Education at a Glance 2018: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris. <http://dx.doi.org/10.1787/eag-2018-en>

поступающих в систему образования из бюджетных организаций и средств хозяйств, включая то, что аудиторские мероприятия служб внутреннего аудита включены в реестр программы «Государственный аudit» и в этой сфере ведется практическая работа. Помимо этого, в последующие годы возникает особая необходимость в организации и контроле процессов, связанных с системой образования в Узбекистане. Актуальность данной исследовательской работы обеспечивается тем фактом, что проводится множество реформ, направленных на решение вопросов анализа и аудита системы высшего образования. Особенно в условиях рыночной экономики и цифровизации необходимо проведение соответствующих научных исследований в связи с существованием различных взглядов ученых данной области на актуальные вопросы, принципы, методы и особенности совершенствования бюджетного учета и контроля в бюджетных организациях.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, поставленных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 24 декабря 2021 года № ПП-61 «О мерах по предоставлению финансовой самостоятельности государственным высшим образовательным учреждениям», от 21 августа 2017 года № ПП-3231 «О дальнейшем совершенствовании механизма финансирования образовательных и медицинских учреждений и системы государственного финансового контроля», от 22 августа 2018 года № ПП-3917 «О мерах по обеспечению открытости бюджетных данных и активного участия граждан в бюджетном процессе», постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 декабря 2020 года № 824 «О мерах по совершенствованию системы организации образовательного процесса в высших образовательных учреждениях» и в других нормативно-правовых актах, связанных с этой сферой.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Ряд зарубежных экономистов-ученых провели научные исследования по созданию и совершенствованию теоретико-методологических основ бюджетного учета и отчетности системы образования, особенно учета и контроля системы высшего образования. К ним можно отнести Anwar Shah, Andreea Cirstea, Antonio Trigo, Fernando Belfo, M.A. Jorge de Jesus, JSB. Eirado, Н.П. Кондракова, О.Красноперову, Т.С. Маслову, О.В. Митину, В.Ю. Покусаева, Т.А. Полещук, М.А. Рябову².

² Anwar Shah. Public Sector Governance and Accountability Series: Budgeting and budgetary institutions. 2007. Andreea Cirstea. The Need for Public Sector Consolidated Financial Statements. Volume 15, 2014, Pages 1289-1296.; Fernando Belfo, Antonio Trigo Accounting Information Systems: Tradition and Future Directions. Procedia Technology. Volume 9, 2013, Pages 536-546.; MA Jorge de Jesus, JSB Eirado. Relevance of accounting information to public sector accountability: A study of Brazilian federal public universities. TÉKHNE - Review of Applied Management Studies. 2012.; Кондраков Н.П. и.друг. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. -М.: Проспект, 2006.; Красноперова О. Бюджетный учет – М.: "ГроссМедиа Ферлаг", 2008.; Полещук Т.А., Маслова Т.С. Контроль и ревизия в бюджетных учреждениях. Учебное пособие. –М.: "ИНФРА-М", 2017. 30

В работах таких, узбекских ученых-экономистов, как К.Б.Ахмеджанова, А.А.Останакулова, А.К.Ибрагимова, М.Останакулова, Н.К.Ризаева, С.Н.Ташназарова, А.Ж.Туйчиева, Б.К.Хамдамова, Б.А.Хасанова, З.У.Хамидовой изучены теоретические вопросы бюджетного учета, отчетности и контроля и направления их развития³.

Также в диссертациях и монографиях Ш.В.Ганиева, С.У.Мехмонова, К.Ш.Ибрагимова, А.С. Бакайбаевой, А.А.Останакулова, Б.Т.Юлдашева, К.А.Артикова создан фундамент для научного обоснования бухгалтерского учета и отчетности, контроля бюджетных организаций⁴.

